Tadqiqotda mintaqalarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalarini baholash uchun qiyosiy institutsional tahlil hamda tizimli yondashuv usullari qo'llanildi. Tahlil jarayonida OECD, Jahon banki, UNCTAD hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida innovatsion xarajatlar dinamikasi va moliyalashtirish tuzilmasi o'rganildi.

Tadqiqot doirasida desk research usuli orqali xalqaro tajriba, ilmiy adabiyotlar hamda statistik manbalar kompleks tahlil qilindi. Shuningdek, case-study yondashuvi asosida dunyoning yetakchi innovatsion ekotizimlari — Silicon Valley, Shenzhen va Isroil innovatsion tizimlarining moliyalashtirish mexanizmlari o'rganildi.

Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, tizimli umumlashtirish va analitik taqqoslash usullari yordamida qayta ishlanib, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari tarkibi hamda ularning o'zaro bog'liqligi baholandi. Tahlil natijalari asosida mintaqaviy innovatsion moliyalashtirishni diversifikatsiya qilish modeli shakllantirildi hamda uning amaliy qo'llash imkoniyatlari aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

OECD ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha umumiy R&D xarajatlari 2000-yildagi 820 milliard AQSh dollaridan 2022-yilda 2,36 trillion AQSh dollarigacha oshgan. Bu ko'rsatkich so'nggi ikki o'n yillik davomida yiliga o'rtacha 5,2 foizlik real o'sish kuzatilganini anglatadi [2]. Shu bilan birga, mazkur o'sish mamlakatlar



o'rtasida bir xil taqsimlanmagan. Masalan, Janubiy Koreyada R&D intensivligi (R&D/YaIM) 4,93 foizga yetgan bo'lsa, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich 0,5 foizdan past darajada saqlanib qolmoqda [2]. Bu tafovut innovatsion moliyalashtirish tizimining tuzilishi va institutsional imkoniyatlaridagi farqlar bilan ham izohlanadi.

Global miqyosda xususiy sektorning R&D xarajatlaridagi ulushi o'rtacha 65-70 foizni tashkil etadi [1]. Biroq ushbu ko'rsatkich ham yuqori texnologiyali iqtisodiyotlarga ega mamlakatlar hamda past daromadli mamlakatlar o'rtasida sezilarli tafovut mavjudligini ko'rsatadi. Masalan, Finlyandiyada xususiy sektorning R&D xarajatlaridagi ulushi 75 foizga yaqinlashgan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa bu ko'rsatkich o'rtacha 30 foizdan past darajada qayd etiladi [7]. Mazkur holat innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish hamda xususiy sektorning innovatsion faolligini rag'batlantirishga qaratilgan siyosat instrumentlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

UNCTADning 2022-yilgi texnologiya va innovatsiyalar bo'yicha hisobotida muqobil moliyalashtirish instrumentlarining jadal rivojlanayotgani alohida ta'kidlanadi. Xususan, 2021-yilda global kraudfanding bozori hajmi 114 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan qariyb ikki barobar oshgan [7]. Shu bilan birga, innovatsion obligatsiyalar bozori ham jadal rivojlanmoqda. Jumladan, "yashil" va "ijtimoiy" obligatsiyalar chiqarilishi 2022-yilda global obligatsiyalar bozorining taxminan 12 foizini tashkil etdi [19]. Bu jarayon innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda yangi moliyaviy instrumentlarning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari va ularning asosiy xususiyatlari¹

Moliyalashtirish manbai	Innovatsiya bosqichi	Asosiy vositalar	Risk darajasi	Xalqaro ulush, foizda
Davlat byudjeti	Fundamental va tatbiqiy tadqiqot	Grantlar, subsidiyalar, davlat buyurtmalari	Past	17
Venchur kapital	Ishlanmalar, tijoratlashtirish bosqichi	VC fondlar, seed investitsiyalar, IPO	Yuqori	22
Korporativ sektor (R&D)	Tatbiqiy tadqiqot va ishlanma	Korporativ laboratoriyalar, spin-off	O'rta	47
Xalqaro tashkilotlar	Institutsional rivojlanish, pilot loyihalar	JB, ADB, UNDP, EU imkoniyatlari	Past-O'rta	8
Muqobil instrumentlar	Erta bosqich, tijoratlashtirish	Kraudfanding, innovatsion obligatsiyalar	O'rta-Yuqori	6

Mintaqaviy miqyosda innovatsion xarajalar ko'pincha sezilarli nomutanosiblik bilan tavsiflanadi. Yevropa Komissiyasi hisobotiga ko'ra, Yevropa Ittifoqining 27 ta mamlakatidagi 280 dan ortiq NUTS-2 hududlarida innovatsion intensivlik Stokgolm mintaqasidagi 7 foizdan Yevropaning kamroq rivojlangan hududlaridagi 0,2 foizgacha farqlanadi [12]. Ushbu "innovatsiya bo'shlig'i" mintaqalar o'rtasidagi texnologik rivojlanish tafovutlarini aks ettiradi hamda manfaatdor tomonlar bilan bir qatorda siyosatchilar va moliya institutlarining e'tiborini talab etadi.

Sorvik va Kleibrink Yevropa mintaqalari bo'yicha innovatsion prioritetlarni tahlil qilib, moliyalashtirish manbalari xilma-xilligi bilan mintaqaviy innovatsion intensivlik o'rtasida ijobiy korrelyatsiya ($r = 0,62$) mavjudligini aniqladilar [18]. Ya'ni, turli moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatiga ega mintaqalarda innovatsion salohiyat o'rtacha 30 foizga yuqori darajada shakllanishi kuzatilgan. Mazkur natija innovatsion rivojlanish strategiyasida moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Osiyo mintaqasida ham shunga o'xshash tendensiya kuzatiladi. Xitoyning Guangdong va Zhejiang provinsiylarida zamonaviy venchur kapital bozori, korporativ R&D investitsiyalari hamda davlat qo'llab-quvvatlash dasturlarining uyg'un kombinatsiyasi shakllangan. Natijada ushbu hududlarda innovatsion faollik darajasi milliy o'rtacha ko'rsatkichlardan 3-4 barobar yuqori darajada qayd etilmoqda. Osiyo taraqqiyot banki (ADB) hisobotiga ko'ra, mintaqaviy darajada moliyalashtirish kanallarining xilma-xilligi texnologik transformatsiya jarayonlarini sezilarli darajada jadallashtiradi [13].

Silicon Valley tajribasi muvaffaqiyatli innovatsion moliyaviy ekotizim davlat, xususiy va xalqaro kapitalning uyg'un kombinatsiyasiga asoslanishini ko'rsatadi. 1960-1980-yillarda Pentagon buyurtmalari (davlat kapitali) texnologik firmalarning dastlabki moliyaviy asosini yaratdi. Keyinchalik xususiy venchur kapital fondlari ushbu ekotizimni o'z-o'zini qo'llab-quvvatlovchi investitsion siklga aylantirdi. 2022-yilda Shimoliy Kaliforniya

¹ Manba: OECD (2023) [2], UNCTAD (2022) [7], IMF (2023) [19] asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

mintaqasida 63 milliard AQSh dollari hajmida vechur kapital investitsiyalari amalga oshirildi, bu AQSh milliy vechur kapital hajmining qariyb 40 foizini tashkil etdi [20].


Xitoyning Shenzhen shahri tajribasi esa davlat boshqaruvi asosida shakllangan moliyaviy diversifikatsiya modelini namoyon etadi. 1980-yillardan boshlab ushbu hududda strategik davlat subsidiyalari hamda maxsus iqtisodiy zonalar tizimi joriy etildi va bu korporativ R&D investitsiyalarining rivojlanishi uchun qulay muhit yaratdi. 2022-yilda Shenzhen R&D xarajatlari mintaqaviy YalMga nisbatan 5,5 foizni tashkil etib, ko'plab rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlariga yaqinlashdi. Bunda xususiy sektorning ulushi 94 foizga yetgani davlat moliyasining katalizatorlik rolini yaqqol ko'rsatadi [7].

Horizon Europe dasturi Yevropa Ittifoqida mintaqaviy innovatsion diversifikatsiya siyosatining muhim namunasi hisoblanadi. 95,5 milliard yevro hajmidagi ushbu dastur orqali rivojlanayotgan Yevropa mintaqalarida ham innovatsion faoliyatni moliyalashtirish imkoniyatlari kengaytirildi. Dastur matching funds tamoyili asosida ishlaydi, ya'ni har bir ajratilgan yevro uchun mahalliy xususiy sektor tomonidan 2-3 yevro qo'shimcha investitsiya jalb qilinadi [12]. Bu esa mintaqaviy moliyalashtirish diversifikatsiyasining kuchli multiplikator effektini namoyon etadi.

Isroil tajribasi kichik iqtisodiyotlar uchun innovatsion moliyalashtirish diversifikatsiyasining samarali modelini ifodalaydi. 1990-yilda tashkil etilgan Yozma dasturi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan vechur kapital fondlarini yaratdi hamda xalqaro investorlarni jalb qilishga xizmat qildi. Natijada mamlakatda o'zini o'zi rivojlantira oladigan vechur kapital ekotizimi shakllandi. 2022-yilda Isroilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan vechur kapital investitsiyalari 1 340 AQSh dollarini tashkil etib, dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biriga aylandi [23].

Ushbu tadqiqot doirasida taklif etilgan Mintaqaviy Innovatsion Moliyalashtirish Diversifikatsiyasi Modeli (MIMM) moliyaviy manbalar portfelini shakllantirish jarayonini tizimli tarzda aks ettiradi. Mazkur model davlat byudjeti mexanizmlari, xususiy vechur kapital, korporativ R&D investitsiyalari, xalqaro institutsional moliyaviy manbalar, akademik intellektual kapital hamda muqobil moliyalashtirish instrumentlari kabi asosiy komponentlarning o'zaro uyg'un faoliyatiga asoslanadi. Ushbu elementlar yagona mintaqaviy innovatsion ekotizim doirasida o'zaro bog'langan holda faoliyat yuritadi.

MIMM modelining asosiy xususiyati shundan iboratki, u moliyaviy resurslarni statik taqsimlash modeli sifatida emas, balki dinamik moliyaviy portfel sifatida talqin etadi. Mintaqaning innovatsion hayot siklining turli bosqichlarida — formatsiya, o'sish, yetuklik va transformatsiya davrlarida — moliyaviy manbalar tarkibini moslashuvchan ravishda qayta muvofiqlashtirish zarur. Mazkur yondashuv A.N. Berger va G.F. Udell tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy o'sish sikli konsepsiyasi bilan metodologik jihatdan uyg'unlashadi [11] (1-rasm).



1-rasm. mintaqaviy innovatsion moliyalashtirish diversifikatsiyasi modeli²

2 Etzkowitz & Leydesdorff (2000) [4] Triple Helix manbalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2023-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, respublikada 2022-yil yakuniga ko'ra ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga sarflangan xarajatlar 944 milliard so'mni (taxminan 84 million AQSh dollari) tashkil etib, YalMning 0,18 foiziga teng bo'lgan [24]. Moliyalashtirish tarkibi tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat mablag'larining ulushi 62 foizni, tadbirkorlik sektorining ulushi 31 foizni, xorijiy manbalar ulushi esa 7 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichlar innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda davlat sektorining yetakchi rolini hamda boshqa moliyalashtirish manbalarini yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Mintaqalar kesimida ushbu ko'rsatkichlar yanada sezilarli tafovut bilan tavsiflanadi. Toshkent shahri va Toshkent viloyati innovatsion xarajatlarning milliy umumiy hajmidagi ulushining 68 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Farg'ona vodiysi hududlari (Farg'ona, Namangan va Andijon viloyatlari) ulushi 14 foiz atrofida bo'lsa, respublikaning boshqa hududlari ulushi 18 foizni tashkil etadi [24], [25]. Mazkur mintaqalararo tafovut innovatsion moliyalashtirish tizimining hududiy jihatdan markazlashganligini ko'rsatadi hamda mintaqaviy moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishning muhimligini ta'kidlaydi.

O'zbekistondagi xalqaro moliyalashtirish imkoniyatlari ham alohida e'tiborga loyiqdir. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan amalga oshirilayotgan aktiv loyihalar portfeli 2023-yil holatiga ko'ra 8 milliard AQSh dollaridan oshgan. Shu bilan birga, to'g'ridan-to'g'ri innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan mablag'lar ulushi umumiy portfelning 11 foizidan kam qismini tashkil etadi [13], [3]. Ushbu ko'rsatkich xalqaro moliyalashtirish resurslarini innovatsion rivojlanish yo'nalishlariga yanada faol jalb etish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, texnoparklarda faoliyat yuritayotgan rezident kompaniyalar soni 2022-yil yakuniga kelib 750 tadan oshgan. Biroq ularning jalb qilgan xususiy investitsiyalari hajmi nisbatan cheklangan darajada saqlanib qolmoqda [25]. Ushbu holat mamlakatda venchur kapital bozori, startap moliyalashtirish instrumentlari hamda klaster moliyalashtirish institutlarini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston mintaqalari uchun moliyalashtirish manbalarini kengaytirish bo'yicha tavsiyaviy instrumentlar³

Instrument	Mexanizm va maqsad	Tavsiya etilgan harakat	Muqobil xalqaro model
Mintaqaviy innovatsion fond (revolving)	Byudjet mablag'laridan o'zini-o'zi to'ldiruvchi fond yaratish	Har bir viloyatda alohida fond tashkil etish	Finlyandiya Sitra fondi
Ko-investitsiya mexanizmi	Davlat-xususiy 1:2 nisbatida parallel investitsiya	Pilot loyihalar texnoparklar asosida	Isroil Yozma dasturi
Innovatsion obligatsiyalar	Kapital bozoridan innovatsion maqsadlar uchun resurs jalb etish	Kapital bozori qonunchiligini moslashtirish	EU Green Bond dasturi
Xalqaro grant portali	Xalqaro grantlarga ariza topshirish platformasi	Yagona raqamli portal va treninglar	Enterprise Europe Network
Klaster moliyaviy kooperativi	Sanoat klasterida umumiy R&D fondini barpo etish	Tekstil, kimyo, IT klasterlaridan boshlash	Shveysariya Innosuisse
Diaspora innovatsion fond	Xorij diasporasining innovatsiyalarga investitsiyasini rag'batlantirish	Maxsus soliq va yuridik sharoitlar yaratish	Hindiston SIDBI diaspora dasturi

Howells ta'kidlaganidek, innovatsion jarayonlarda moliyaviy intermediarlar — akseleratorlar, biznes-inkubatorlar va texnologiya transfer markazlari — kapital oqimlarining samarali taqsimlanishida muhim ko'priklar vazifasini bajaradi [14]. Mazkur institutlar nafaqat moliyaviy vositachi sifatida, balki axborot va kompetensiyalar almashinuvini ta'minlovchi mexanizm sifatida ham faoliyat yuritadi. Natijada investorlar va innovatorlar o'rtasidagi axborot assimetriyasi kamayadi hamda innovatsion loyihalarining moliyalashtirish imkoniyatlari kengayadi.

Yevropa Investitsiya Banki (EIB) tadqiqotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqida moliyalashtirish muammolari innovatsion firmalarning 36 foizi uchun asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi [16]. Shu bilan birga, innovatsion ekotizimda intermediar institutlarning mavjudligi ushbu ko'rsatkichni 18-22 foizgacha kamaytirishi mumkinligi aniqlangan. Bu esa innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashda intermediatsiya infratuzilmasining ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Xususan, innovatsion klasterlar va texnoparklarda moliyaviy maslahat xizmatlarini

3 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

rivojlantirish mintaqaviy innovatsion faollikni oshirishning samarali va nisbatan tejamkor usullaridan biri sifatida qaraladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (UNDP) hisobotlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishda raqamli platformalar va fintech instrumentlaridan foydalanish istiqbollari alohida ta'kidlanadi [21]. Jumladan, raqamli kraudfanding platformalari orqali nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qilish, balki yangi texnologiyalarni sinovdan o'tkazish hamda bozor talabini baholash imkoniyati ham yaratiladi. Ushbu yondashuv ayniqsa innovatsion faoliyatning dastlabki bosqichida faoliyat yuritayotgan startaplar va kichik innovatsion firmalar uchun muhim afzallik hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari mintaqalarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish masalasi bo'yicha bir qator muhim ilmiy xulosalarni asoslash imkonini berdi. Birinchi xulosa shundan iboratki, moliyalashtirish manbalarining ko'pligi va xilma-xilligi mintaqaviy innovatsion faollikning ortishi bilan ijobiy bog'liqdir. Ushbu bog'liqlik statistik ma'lumotlar [1], [12], [18] hamda keys-stadiy tahlillari orqali tasdiqlandi. Ikkinchi xulosa shuni ko'rsatadiki, yagona moliyalashtirish manbasiga tayanish innovatsion tizimni siklik iqtisodiy xavf-xatarlarga nisbatan sezgir holatga keltirishi mumkin, moliyaviy portfelni diversifikatsiya qilish esa ushbu xavflarni muvozanatli ravishda kamaytirishga xizmat qiladi.

Uchinchi xulosaga ko'ra, Triple Helix konsepsiyasi [4] hamda moliyaviy o'sish sikli nazariyasi [11] kombinatsiyasi mintaqaviy innovatsion moliyalashtirish modelini shakllantirish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi. Taklif etilgan Mintaqaviy Innovatsion Moliyalashtirish Diversifikatsiyasi Modeli (MIMM) aynan ushbu nazariy yondashuvlardan kelib chiqib ishlab chiqildi va unda oltita moliyaviy kanal hamda ularning dinamik kombinatsiyasi hisobga olindi. To'rtinchi xulosa shundan iboratki, davlat kapitalining katalizatorlik roli — ayniqsa moliyaviy bozorlar yetarli rivojlanmagan mintaqalarda — iqtisodiy jihatdan asoslangan strategik investitsiya sifatida namoyon bo'ladi [6], [23].

Beshinchi xulosaga ko'ra, O'zbekiston uchun innovatsion moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish alohida strategik ahamiyatga ega. Chunki hozirgi sharoitda davlat byudjeti mablag'larining yuqori ulushi (62 foiz) moliyalashtirish tizimining muvozanatini cheklashi mumkin [24], [25]. Shu sababli xususiy sektor, xalqaro moliya institutlari hamda muqobil moliyaviy instrumentlarni tizimli jalb etish innovatsion moliyalashtirish tizimini barqaror rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida mintaqalarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish bo'yicha quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi. Birinchidan, mintaqaviy darajada revolving innovatsion fondlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunday fondlar byudjet mablag'larining bir qismi hisobidan shakllantirilib, o'zini-o'zi to'ldirish prinsipi asosida qaytariladigan moliyaviy yordam ko'rsatish mexanizmini ta'minlaydi. Finlyandiyaning Sitra fondi tajribasi ushbu modelning samaradorligini namoyon etadi [2].

Ikkinchidan, ko-investitsiya mexanizmini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv davlat kapitali orqali xususiy investitsiyalarni 1:2 nisbatida jalb etish imkonini beradi. Ushbu model Isroilning Yozma dasturi doirasida muvaffaqiyatli qo'llanilib, kichik iqtisodiyot sharoitida venchur kapital ekotizimini shakllantirish uchun muhim tajriba yaratgan [23].

Uchinchidan, xalqaro grant va kredit resurslariga murojaat qilish jarayonlarini soddalashtirish maqsadida yagona raqamli platforma yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Enterprise Europe Network tajribasi asosida mintaqaviy koordinatorlar tarmog'ini rivojlantirish bu jarayonning samaradorligini oshirishi mumkin [12], [16].

To'rtinchidan, innovatsion maqsadlar uchun maxsus obligatsiyalar bozorini rivojlantirish zarur. Kapital bozoridan innovatsion loyihalar uchun uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini beruvchi yuridik va institutsional bazani shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi [7], [19].

Beshinchidan, sanoat klasterlari doirasida kooperativ R&D fondlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu mexanizm korporativ sektorning innovatsion jarayonlarga qo'shgan hissasini oshirish hamda klaster ichida bilim va texnologiyalarning samarali tarqalishini rag'batlantirish imkonini beradi [10], [20].

Oltinchidan, moliyaviy intermediatsiya infratuzilmasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, texnoparklar doirasida moliyaviy maslahat markazlari, akseleratorlar hamda biznes-angel tarmoqlarini rivojlantirish zarur. Howells ta'kidlaganidek, moliyaviy intermediar institutlar kapital oqimlarini optimallashtirish va innovatsion loyihalarni investorlar bilan samarali bog'lashda muhim ko'prik funksiyasini bajaradi [14].

Taklif etilgan kompleks yondashuv mintaqaviy innovatsion moliyalashtirish tizimini faqat byudjet transfertlariga tayanadigan modeldan ko'p komponentli, barqaror va risklarga nisbatan chidamli moliyaviy portfelga aylantirish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida mintaqaviy innovatsion faollikning oshishi, texnologik transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda hududiy iqtisodiy diversifikatsiyaning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD (2021). Financing SMEs and Entrepreneurs 2021: An OECD Scoreboard. OECD Publishing, Paris. <https://doi.org/10.1787/39626ded-en>.
2. OECD (2023). OECD Science, Technology and Innovation Outlook 2023. OECD Publishing, Paris. <https://doi.org/10.1787/0b55736e-en>.
3. World Bank (2022). Innovative Finance for Development Solutions. World Bank Group, Washington, D.C. <https://www.worldbank.org/en/topic/financialsector/brief/innovative-finance>.
4. Etzkowitz, H., & Leydesdorff, L. (2000). The dynamics of innovation: from National Systems and "Mode 2" to a Triple Helix of university-industry-government relations. *Research Policy*, 29(2), 109-123. [https://doi.org/10.1016/S0048-7333\(99\)00055-4](https://doi.org/10.1016/S0048-7333(99)00055-4).
5. Cooke, P. (2001). Regional innovation systems, clusters, and the knowledge economy. *Industrial and Corporate Change*, 10(4), 945-974. <https://doi.org/10.1093/icc/10.4.945>.
6. Mazzucato, M. (2013). *The Entrepreneurial State: Debunking Public vs. Private Sector Myths*. Anthem Press, London. <https://marianamazzucato.com/books/the-entrepreneurial-state/>.
7. UNCTAD (2022). *Technology and Innovation Report 2022: Catching Technological Waves*. United Nations, Geneva. <https://unctad.org/webflyer/technology-and-innovation-report-2022>.
8. Asheim, B.T., & Gertler, M.S. (2005). The Geography of Innovation: Regional Innovation Systems. In: J. Fagerberg, D.C. Mowery, & R.R. Nelson (Eds.), *The Oxford Handbook of Innovation* (pp. 291-317). Oxford University Press. <https://doi.org/10.1093/oxfordhb/9780199286805.003.0011>.
9. Lundvall, B.-Å. (Ed.). (1992). *National Systems of Innovation: Toward a Theory of Innovation and Interactive Learning*. Pinter Publishers, London. <https://doi.org/10.7135/UPO9781843318903>.
10. Porter, M.E. (1998). Clusters and the new economics of competition. *Harvard Business Review*, 76(6), 77-90. <https://hbr.org/1998/11/clusters-and-the-new-economics-of-competition>.
11. Berger, A.N., & Udell, G.F. (2006). A more complete conceptual framework for SME finance. *Journal of Banking & Finance*, 30(11), 2945-2966. <https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2006.05.008>.
12. European Commission (2023). *European Innovation Scoreboard 2023*. Publications Office of the European Union, Luxembourg. https://ec.europa.eu/growth/industry/policy/innovation/scoreboards_en.
13. Asian Development Bank (2022). *Innovation and Technology in Finance: A Thematic Assessment*. ADB, Manila. <https://www.adb.org/publications/innovation-technology-finance>.
14. Howells, J. (2006). Intermediation and the role of intermediaries in innovation. *Research Policy*, 35(5), 715-728. <https://doi.org/10.1016/j.respol.2006.03.005>.
15. Revest, V., & Sapio, A. (2012). Financing technology-based small firms in Europe: what do we know? *Small Business Economics*, 39(1), 179-205. <https://doi.org/10.1007/s11187-010-9291-6>.
16. European Investment Bank (2023). *EIB Investment Survey 2023: European Union Overview*. EIB, Luxembourg. <https://www.eib.org/en/publications/20230266-eibis-2023-european-union-overview>.
17. Fagerberg, J., Mowery, D.C., & Nelson, R.R. (Eds.). (2005). *The Oxford Handbook of Innovation*. Oxford University Press, Oxford. <https://doi.org/10.1093/oxfordhb/9780199286805.001.0001>.
18. Sörvik, J., & Kleibrink, A. (2015). Mapping Innovation Priorities and Specialisation Patterns in Europe. JRC Science and Policy Reports, EUR 27220 EN. <https://publications.jrc.ec.europa.eu/repository/handle/JRC95801>.
19. IMF (2023). *World Economic Outlook: A Rocky Recovery*. International Monetary Fund, Washington, D.C. <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2023/04/11/world-economic-outlook-april-2023>.
20. Engel, J.S. (Ed.). (2015). *Global Clusters of Innovation: Entrepreneurial Engines of Economic Growth around the World*. Edward Elgar Publishing. <https://doi.org/10.4337/9781782545897>.
21. UNDP (2023). *Human Development Report 2023/24: Breaking the Gridlock*. UNDP, New York. <https://hdr.undp.org/content/human-development-report-2023-24>.
22. Freeman, C. (1987). *Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan*. Pinter Publishers, London. ISBN: 0-86187-740-3.
23. Lerner, J. (2009). *Boulevard of Broken Dreams: Why Public Efforts to Boost Entrepreneurship and Venture Capital Have Failed*. Princeton University Press, Princeton. <https://press.princeton.edu/books/hardcover/9780691142197/boulevard-of-broken-dreams>.
24. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (2023). *O'zbekiston raqamlarda - 2023*. Davlat statistika qo'mitasi, Toshkent. <https://stat.uz/uz/press-tsentr/novosti-gks/6375-ozbekiston-raqamlarda-2023>.
25. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi (2023). *Innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risida hisobot - 2022*. Innovatsion rivojlanish vazirligi, Toshkent. <https://mininnovation.uz/uz/pages/view?id=10>.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100